Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

CHO‘LPON LIRIKASIDA RAMZ VA IJODIY USLUBI HAQIDA

Jamolov Islom Ilhom o‘g‘li

Osiyo texnologiyalari universiteti magistranti

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20032651

O‘zbek mumtoz adabiyotida osmon jismlari o‘z ma’nosidan tashqari, ramziy ma’nolarda “ko‘p va xo‘p” qo‘llangan. Jumladan, quyosh-Alloh, ma’shuqa; oy- ma’shuqa, yulduz – go‘zallik ramzi sifatida qo‘llangan. Biroq osmon jismlari orqali ifodalangan ramziy ma’nolar o‘zgarmas va turg‘un emas. Aytmoqchimizki, ramzlar orqali ifodalangan ma’no vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishga uchrashi, tabiiy hol. Buning asosiy sababi inson tafakkurining o‘sishi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar bilan bog‘liq. Shu bois ham osmon jismlari va ularga yuklangan ramziy ma’nolar o‘zgarib borgan. Jumladan, jadid she’riyatida ham quyosh, oy, yulduz kabi ramziy obrazlar faol qo‘llanilgan va har biriga o‘ziga xos ma’no yuklangan.

Turkiy xalqlar madaniyatida samoviy elementlar haqida gap ketganda, quyosh eng keng tarqalgan ramziy obrazdir. Quyosh - turkiy xalqlar adabiyotida yorug‘lik va ezgulik ramzi sifatida qo‘llangan. Yorug‘likning qorong‘ulik ustidan g‘alabasi quyosh ramzi bilan ifodalangan. Quyosh Xudoning nurini yerga, ya’ni odamlarga olib kelgani uchun odamlar uchun uni muqaddas, himoyachi va qutqaruvchi sanaganlar. “Quyosh – barcha xalqlarga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi kosmik ramz; hayot manbai, yorug‘likni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog‘lanadi”.

Quyosh jadid she’riyatida ham ramziy-timsoliy obraz sifatida o‘ziga xos ma’no tashigan. Mazkur obraz jadid shoirlaridan Cho‘lpon she’riyatida ko‘p qo‘llangan. Ta’kidlash kerakki, shoir va yozuvchilar o‘zlari yashagan davrni o‘z asarlarida qayta yaratadilar. Buning uchun o‘zlari yashagan jamiyatni, ijtimoiy–siyosiy muhit, diniy hayot, tarixiy voqealar, davr odamlari, makon va joylarini o‘z kuzatishlari va badiiy tafakkurlari orqali ramzlar olamida badiiy talqin etadilar.

Cho‘lponning ijodida quyosh ramziy obraz sifatida davrning og‘riqli nuqtalarini, shoir qalbini o‘rtagan millat, xalq taqdiri bilan bog‘liq siyosiy muammolar talqini uchun buysundirilgan. Cho‘lpon mumtoz adabiyotning o‘lmas an’analaridan, ohang va obrazlaridan mohirona foydalandi. Mumtoz she’riyatdagi yetakchi bo‘lgan ishq mavzusining Cho‘lpon lirikasida ma’no qirralari kengaydi. Buni shoirning mashhur “Qalandar ishqi” she’rida ham ko‘rishimiz mumkin. G‘azal ma’tasida quyosh ramzi ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku

Mumtoz she’riyat ohanglari yaqqol sezilib turgan mazkur baytda bir qarashda intim tug‘ular yetakchilik qilganday tuyuladi. Cho‘lponing bu g‘azaliga, ayniqsa, g‘azal maqtasiga yirik adabiyotshunoslar munosabat bildirganlar va uni turli xil talqin qilganlar. Jumladan, adabiyotshunos olim tomonidan Ozod Sharofiddinov “bu baytda oshiq sevgan yorini quyoshga, o‘zini esa yuzduzga qiyos qilyapti, ammo oshiq yor vasliga erisha olmaydi, chunki quyosh chiqqanda yulduz bekinmog‘i kerak.” Olimning bu talqinida quyosh va yulduz ramziy obrazlari bilan bog‘liq an’anaviy qarashlarga tayanilgan. Xuddi shu baytga munosabat adabiyotshunos olim D.Quronov tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Olimning e’tiroficha “... maqta’dagi shoir taxallusining asl ma’nosi ramziy ma’noga ishora qiladi, muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so‘nishga majbur bo‘ldiki, bu bilan Oktyabr inqilobining mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinayotir”. Ko‘rinib turibdiki, bir bayt doirasida bildirigan fikrlar zohiriy va botiniy ma’nolarga ega.

Cho‘lpon baytda quyosh va yulduz kabi osmon jismlarni ramziylashtirgan. Cho‘lpon –tong yulduz. Cho‘lpon (Venera) yorqinligi bo‘yicha osmondagi uchinchi jism. Shoir baytda Cho‘lpon so‘zni ham yulduz nomi (kosmonim), ham taxallus ma’nosida qo‘llagagan. Quyoshning “bosh ko‘tarishi”

osmondagi yulduzning ko‘rinmasligiga sabab bo‘ladi. Baytda shoir mazkur tabiiy holatni tasvirga olib, o‘zining ijtimoiy g‘oyalarini badiiy talqin qilgan.

Turkiy xalqlar adabiyotida Quyosh hamisha ijobiy ma’nolarda qo‘llangan ramziy obraz sanaladi. Biroq shoir maqta’da quyoshni erk va ozodlik ramzi bo‘lgan Cho‘lpon yulduzini “erga botishi”ga sababchi bo‘lganligini ta’kidlaydi. Demak, baytda quyosh ramziga salbiylik bo‘yog‘ida berilgan. Quyosh – o‘zbek xalqiga erkinlik berishni va’da qilgan Oktyabr inqilobining ramzi edi. Bu “quyosh” millatning boshiga “zulm”larini sochdi, xalqni erkidan, huquqidan mahrum qildi. Mustabidlik zanjirini millatning bo‘yniga osdi.

Jadid adabiyotning yirik tadqiqotchisi Begali Qosimovning baytga doir mulohazalarida ham mazkur ramzlar ijtimoiylik nuqtayi nazaridan baholanganligini ko‘rishimiz mumkin. “Shubha yo‘qki, “Cho‘lpon” va “Quyosh”ning ma’nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritqichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy rutbalargacha daxddor”.

Cho‘lpon birgina baytda osmon, quyosh, yulduz kabi tabiat unsurlarni ramziylashtirishga erishgan. Ko‘rinib turibdiki, “Cho‘lpon” va “Quyosh” ramzlarini – osmon yoritqichlari – ishq-muhabbat – ijtimoiy-siyosiy muammolarni talqini uchun xizmat qilgan.

Adabiyotda quyosh obrazi ramziylashtirilar ekan, uning harakati, holatlari, ya’ni “chiqishi”, “botishi”, “qizarishi” “tutilishi” kabilarga ham alohida e’tibor berilgan. Buni shoirning “Tortishuv tongi” she’rida ham ko‘rishimiz mumkin. ***Yenggan qo‘shin boshlig‘idek gerdayib***
Botgan quyosh bulutlarning ostidan
Bosh ko‘tarib chiqmoq uchun tirisha.
Shuning uchun beri yoqda irjayib
Kulishurlar.
Unga qarshi, qarshidan
Yig‘lov, siqtov, tovush, g‘avg‘o, xarxasha.

Shoir she’rning dastlabki bandida osmondagi quyoshning botishi va uning bulutlar ostidagi “kurashi”ni ramzlashtirgan. Botgan quyoshning bulutlar ostidan “gerdayib” bosh ko‘tarib chiqishiga intilishini kurash va umid ramzi sifatida anglash mumkin. Shoir quyosh ramzi orqali erk va ozodlikka intilgan millat qiyofasini badiiy talqin qilgan. “Botgan quyosh bulutlarning ostidan, Bosh ko‘tarib chiqmoq uchun tirishi”shi Turkiston xalqlarning ozodlik yo‘lidagi harakatlariga ishora qiladi. Bu harakatlarga esa "irjayib” kulayotganlar ham bor. Irjaymoq – kulishning bir ko‘rinishi. Shoir o‘zi ramzlashtirmoqchi bo‘lgan g‘oyaning badiiy ifodasi uchun tanlagan har bir so‘z g‘oya uchun bo‘ysundirilgan. “Irjaymoq” salbiy konnotativ ma’noga ega so‘z. Shoir birgani shu so‘z orqali millat taqdirining tragik holatini ko‘rsatib berishga erishgan. “Irjayib kulish”da tahrirlash, xo‘rlash, istehzo bor. Bandning oxirgi ikki misrasida “irjayib kulish”ga “Yig‘lov, siqtov, tovush, g‘avg‘o, xarxasha” qarshilantirilgan. Bu “oddiy yig‘i” emas, balki butun millatga tegishli “yig‘i”dir.

She’rning keyingi bandida shoir tasvirni “ko‘pdan beri zindonda quyosh ko‘rmay zaxlab qolgan ko‘ngillar”ga ko‘chiradi. “Chiqar kunlar yetdi sizga” deya istiqlol tongiga bashorat qiladi.

Qayg‘uringiz:
Kishanlarni yasovchi
ustalar.
Boshqalarni tubanlar deb atovchi
xo‘jalar,
Sizning uchun yoz boshining qoridek
Eruv kunlar keladir,
Sizning uchun alvastining zoridek
yig‘lar kunlar keladir…

Diqqat qilsak, shoir ramzlarni qatorlashtirib keltiradi. “Kishanlarni yasovchi “ustalar”, Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar” – mustamlakachilar, “yangi tuzum”ning “yalovbardorlari”. Shoir ular uchun “yoz boshining qoridek eruv kunlar kelishi”, “olbostining zoridek yig‘lar kunlar yetishi”dan xabar beradi. Bu esa shoir qalbidagi, millatning orzusidagi istiqlolgan bo‘lgan umidga ishoradir.

Chiqadirgan quyoshni siz behuda
Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang,
Axmoq bo‘lib Azroilning oldida
Jon talashing, to o‘lguncha berishmang.

She’rning yakunida shoir yana quyosh ramziga murojaat qiladi. “Chiqadirgan quyosh” – istiqlol quyoshi, mustaqillik quyoshi. Shoir o‘zing obrazli fikrni tasdiqlash uchun “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” degan xalq maqolini o‘zgartirib keltiradi. Maqol tarkibidagi “oy” ni “quyosh” bilan o‘zgartirishida ham ma’lum ma’noda bo‘yoqdorlik bor. Aslida, oy quyoshdan nur oladi. Bundan tashqari, qadimdan quyoshga yorug‘lik va ezgulik ramzi sifatida qaralgan.Shoir shuning uchun bo‘lsa kerak, shoir maqol qo‘llangan so‘zni o‘zgartirgan.

Cho‘lpon quyoshni ramziylashtirar ekan, u bilan bog‘liq mifologiq qarashlardan ham o‘rinli foydalanadi. Quyosh va oyning tutilishi tabiiy hodisa. Biroq turkiy xalqlarda bu tabiiy hodisaga doir turli mifologik qarashlar paydo bo‘lgan.

Mifologik qarashlarda bu tabiiy hodisaga salbiy bo‘yoq berilgan. Quyosh yoki oyning tutilishi omadsizlik, o‘lim, ofatdan darak beradi,– deb qaralgan. Aytishlaricha, qadimgilar yozuv kuchlar quyosh va oyni o‘g‘irlab ketishgan, deb ishonganlar Yozuv kuchlar zulmatni yaxshi ko‘rgan. Oy va quyosh nurli. Yovuz kuchlar esa zulmatni yaxshi ko‘rganliklari bois, yorug‘lik va tovushdan qochishgan. Shuning uchun ham ko‘p joylarda, Oy va Quyosh tutilishida odamlar shovqin ko‘tarib, yovuz kuchlarni qo‘rqitishga harakat qilishgan.

Umuman, Cho‘lpon she’riyatida “quyosh” – istiqlol, erk va ozodlik timsoli sifatida badiiy talqin qilingan. Shoir “quyosh” ramziylashtirar ekan, u bilan bog‘liq xalqda shakllangan mifologik qarashlarga, folklor, mumtoz adabiyot an’analaridan unumli foydalanadi. She’rning emotsional ta’siri juda kuchli. Cho‘lponning ijodida realizm va simvolizmning mukammal birlashuvi shoir she’rlarining asl mohiyatini tashkil etadi. U realistik tasvirlar orqali hayotning murakkabliklarini ko‘rsatsa, simvolik obrazlar bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabat bildiradi. Cho‘lpon she’riyatidagi har bir poetik ramz shoirning lirik kechinmalari va orzu-armonlari bilan birga, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelikni ham tasvirlaydi. Cho‘lpon she’riyatida istiqlol, erk, hurlik kaabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni aks ettiruvchi ko‘plab ramzlar ishlatilgan. Bu ramzlar shoirning o‘z davridagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni, xalqining azob-uqubatlarini va ozodlikka bo‘lgan intilishlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Sodiqov, R. Shamsutdinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - T., “Sharq”, 2000.
2. Uyg‘un she’rlari. – T., “O‘zdavrnashr”, 1936.
3. D.Quronov. Cho‘lpon ijodi tanqid ko‘zgusida. – T., “Muharrir”, 2022.
4. I.Madg‘oziyev. Cho‘lpon (tadqiqot va materiallar). – T., “Muharrir”, 2022.
5. B.Karimov. Jadidlar; Abdulhamid Cho‘lpon. – T., “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022.